



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH IMKONIYATLARI

No'monova Hilola Muftillo qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash sharoitida xususiy sektor tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, xususiy tadbirkorlik tushunchasi, uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati, ushbu sohani rivojlanish tendentsiyalari o'rganilib, xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Tayanch iboralar. makroiqtisodiyot, barqarorlik, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes.

Kirish

Hozirgi kunga kelib iqtisodiy o'sishning har qanday ko'rinishida xususiy sektorning o'rni yuqori ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan o'z tasdig'ini topib kelmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda bozor mexanizmlariga o'tish, erkinlashtirish va liberallashtirish yo'lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususiy sektorni rivojlantirish bu islohotlarning markazida turibdi. Xususiy sektorni kuchaytirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, bandlikni ta'minlash va davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Kelajakda iqtisodiyotimiz yanada ravnaq topishi uchun raqobatbardosh xususiy sektor drayveri bo'ladigan iqtisodiy o'sish mamlakat taraqqiyoti uchun zarur ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi o'zgarishlar va yangiliklar uchun oldimizga qo'yilgan vazifalarimizdan



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

biri dinamik va inklyuziv xususiy sektorni rivojlantirishda ko'maklashishdan iborat hamda jahondagi rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga tadbiq qilingan va o'z samarasini ko'rsatgan makroiqtisodiy modellardan na'muna olgan holda buni mamlakat hududida targ'ib qilishimiz ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham qulay tadbirkorlik muhitini yaratish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi 4699-sonli qaror – Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamda 5953-son Prezident Farmoni – Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islohotlar 2022 yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmonilarida belgilangan vazifa va chora tadbirlarni amalga oshirish milliy iqtisodiyotda qulay biznes va investitsiya muhitini yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Xususiy sektor va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik haqida chuqurroq anglashga harakat qilsak uning negizida raqobatbardosh yer, mehnat va kapital bozorlari shakllantirilishi iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi hamda ishlab chiqarish omillaridan optimal foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiyot subyektlari uchun bozorda teng va adolatli sharoitlarning vujudga kelishi sog'lom raqobat muhitini yanada mustahkamlaydi, bu esa samaradorlikni oshirish va bozor intizomini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biznes faoliyatini tartibga solishning shaffof, barqaror va samarali mexanizmlarini joriy etish xususiy tashabbusni rag'batlantiradi hamda investitsion muhitni yaxshilaydi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotning ochiqlik darajasini oshirib, kapital oqimlari barqarorligini ta'minlaydi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, bandlik darajasi ortadi va ishsizlik kamayadi. Bu jarayonlar o'z navbatida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) barqaror o'sishiga, eksport salohiyatining kengayishiga hamda valyuta tushumlarining mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, xususiy sektorning rivojlanishi texnologik innovatsiyalarni jadallashtiradi, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasini ta'minlaydi va milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi. Umuman olganda, xususiy sektorning institutsional jihatdan mustahkamlanishi va samarali faoliyati makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak Janubiy Koreya 1960-yillardan boshlab xususiy sektorga asoslangan industrializatsiyani boshladi. Hukumat dastlab yirik sanoat konglomeratlari (chaebol)ni qo'llab-quvvatladi¹. Keyinchalik kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Hukumat tomonidan: Kreditlar va subsidiyalar berildi, soliq imtiyozlari yaratildi, eksportni rag'batlantirish siyosati yuritildi. Natijada 40 yil ichida Koreya kambag'allikdan dunyoning 10 ta ilg'or iqtisodiyoti qatoriga chiqdi.²

Turkiyada xususiy sektor islohotlar natijasida iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylandi. Davlat tomonidan davlat korxonalarining xususiylashtirilishi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, Xalqaro savdo va investitsiyalar uchun ochiqlik siyosati yo'lga qo'yildi. Natijada, 2002–2018 yillar oralig'ida Turkiya iqtisodiyoti 5% dan ortiq o'sishga erishdi, eksport hajmi esa 4 barobarga oshdi.³

¹World Bank. (2020). "The Korean Miracle (1962–1980) Revisited: Myths and Realities in Strategy and Development."

²Amsden, A. H. (1989). "Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization." Oxford University Press

³World Bank (2020). "Turkey's Economic Transformation: Lessons, Challenges and Opportunities."



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xulosa va takliflar. Xususiy sektorni strategik rivojlantirish O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlik, bandlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqadigan bo‘lsak mamlakat Iqtisodiyotida davlat sektoriga nisbatan xususiy sektorning dominantlashuvi makroiqtisodiy barqarorlik uchun zaruriy yechimlardan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan samarali boshqaruv, imtiyozlar va adolatli raqobat muhiti yaratish xususiy sektorning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston hududida bu masalani samarali yechish chora tadbirlari sifatida esa xususiy tadbirkorlik uchun davlat tomonidan qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilishi hamda kichik va o‘rta biznes egalari uchun imtiyozlar davlat dasturlari ichiga kiritilishi kerak bo‘ladi. Buning natijasida esa mamlakatimizda iqtisodiy o‘zgarishlarning ijobiy natijalariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (<https://lex.uz/docs/-5947775>).
2. IFI_and_Development_Trough_the_Private_Sector.7-15bet
3. World Bank. (2020). “The Korean Miracle (1962–1980) Revisited: Myths and Realities in Strategy and Development.”
4. Amsden, A. H. (1989). “Asia’s Next Giant: South Korea and Late Industrialization.” Oxford University Press.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
5. OECD (2016). "The Role of SMEs in Korea's Economy."
"<https://www.oecd.org>
 6. World Bank (2020). "Turkey's Economic Transformation: Lessons, Challenges and Opportunities."
 7. Rodrik, D. (2009). "Why Turkey Should Join the EU." Foreign Affairs.